

XURSHID DO‘STMUHAMMAD IJODINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Xajikurbanova Nilufar

Urganch davlat universiteti

2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xurshid Do‘stmuhammadning hikoyalarini o‘rganishda interfaol metodlardan foydalanish ko‘nikmalari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Interfaol metodlar, “Mehmon”, “Hasharchilar”, “Joziba”, “Kim biladi?” metodi, “Ha yoki yo‘q” metodi, “Zinama-zina” metodi

Bugungi kunda dars o‘tish jarayonida yosh avlodning fikrlashi, intilishlari o‘qituvchi, ustozlarni izlanishga, yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanishga undamoqda. Taraqqiylashgan hozirgi davrda dunyoda har bir daqiqada, har bir jabhada o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Interfaol metodlardan foydalangan holda dars o‘tilsa, o‘quvchilar bu fanga mehr qo‘yadilar, uni o‘zlashtirish ham oson kechadi. Shu jumladan, adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish yosh avlodni adabiyotga qiziqtiradi va badiiy adabiyot ularning hayotida muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. Adabiyotshunos olim B.To‘xliyev “Adabiyot o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmasida yozuvchi tarjimayi holini o‘rgatish masalasiga tegishli quyidagi mulohazalarni bayon qilgan: “Badiiy asarlarni o‘rganishda uning muallif haqidagi ma’lumotlar ham ayricha ahamiyat kasb etadi. Bu ma’lumotlar ko‘pincha, asarning g‘oyaviy badiiy mazmunini teranroq anglashda, asarning ijtimoiy-estetik mohiyatini to‘g‘ri belgilashda yordam beradi”.

Hikoya mazmuni, odatda, savollar asosida tahlil qilinadi. So‘roqlardan ikki maqsadda hikoya mazmunini tahlil qilish va dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakatlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi. Hikoyani o‘qitishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o‘quvchilar nutqini o‘stirish pedagogik asoslardan biri

hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi interfaol metodlar, interaktiv usullarni ta'lim beruvchilar tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanib borilishi, ta'lim mazmunini o'zgartirib yuboradi. Zamonaviy o'qituvchi ta'lim oluvchilarni fanga ijodkorlik nuqtayi nazaridan qarashlarini tashkil etishi, izlanuvchanlik va mustaqil fikr yuritish xususiyatlarini to'g'ri shakllantirishi hamda yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda dars soatlarini tashkil etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Interfaol metodlar o'quvchilarda doimiy faollikni ta'minlaydi. O'quvchilar dars davomida bo'sh qolmaydilar, ular mavzuga oid biror-bir muammo bilan bo'ladilar. Natijada esa zerikish holatini oldi olinadi. Interfaol metodlardan foydalanishda o'qituvchi, eng avvalo, darsning texnologik loyihasini tuzib olishi lozim. Darsni texnologik loyihalash uchun esa o'qituvchi interfaol metod usullari bilan tanish bo'lishi lozim. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida boy tajriba to'plagan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Xurshid Do'stmuhammadning o'quvchilarga tushunilishi qiyinroq bo'lgan, ya'ni noan'anaviy uslublarda yaratilgan asarlarini o'quvchilarga o'qitishda qiziqarli metodlardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Yozuvchining "Mehmon", "Hasharchilar", "Joziba" kabi hikoyalarini o'rganishda "Kim biladi?", "Ha yoki yo'q", "Zinama-zina" metodlarini qo'llash lozim bo'ladi.

Birinchi "Kim biladi?" interfaol metodida o'quvchilar ikkita guruhga bo'lingan holda joylashib o'tiradilar. Bunda dastlab birinchi guruhning a'zosi bir hikoyaga oid uchta ma'lumot aytadi va ikkinchi guruh bu ma'lumotlar qaysi hikoyaga tegishli ekanligini topishlari kerak bo'ladi. Masalan,

1. Xurshid Do'stmuhammadning hikoya janriga mansub asari.
2. Hikoyada ota va o'g'il obrazlari bor.
3. Ushbu hikoyada Xolboy obrazi ishtirok etgan.

Yuqoridagi kabi ma'lumotlar aytilgandan keyin ikkinchi guruh a'zolari ushbu ma'lumotlar "Hasharchilar" hikoyasidan ekanligini topishlari kerak bo'ladi. Keyin esa bu holat ikkinchi guruh tomonidan takrorlanadi. Ikkinchi guruh birinchi guruhga bitta hikoya yuzasidan uchta ma'lumot beradilar, ular ham qaysi hikoyadanligini topishlari kerak bo'ladi.

Ikkinchisi "Ha yoki yo'q" o'yinida Xurshid Do'stmuhammadning "Joziba", "Mehmon", "Hasharchilar" hikoyalari asosida bitta ma'lumot aytiladi, o'quvchi esa bu ma'lumotning to'g'ri yoki noto'g'riligini "Ha" yoki "Yo'q" javoblari bilan tasdiqlashi kerak bo'ladi. Bu metodda har bir o'quvchi individual qatnashadi. Misol uchun, "Chinor Ma'mirov ko'zini xiyol ochdi-yu, sohibjamol styuardessa qiz uning ikki biqinining ostiga qo'l suqib, qayish uchlarini tortib chiqarayotganini ko'rdi" ushbu jumlar "Joziba" hikoyasidan olingan, - deb o'qituvchi o'quvchiga o'qib beradi, u esa to'g'ri bo'lsa, "Ha", noto'g'ri bo'lsa "Yo'q" deb javob beradi. Bu interfaol metodda tezkorlik, chaqqonlik asosiy o'rin tutadi.

1. "Samo farishtalari" jumlasini "Hasharchilar" hikoyasidan olingan.

– Yo'q. Chunki u "Joziba" hikoyasidan olingan.

2. "Hasharchilar" hikoyasida mehmon bo'lib kelgan ishchilar moshxo'rdagi pishirish uchun oshxonaga kirib harakatlarini boshlaydilar.

– Yo'q. Chunki osh damlash uchun edi. Agar ma'lumot to'g'ri bo'lsa, "Ha" deb javob berishlari kerak bo'ladi.

Uchinchi metod "Zinama-zina" deb nomlanadi. Ushbu interfaol metodda o'quvchilar Xurshid Do'stmuhammadning uchta hikoyasi bo'yicha ma'lumot aytadilar. Bu metod guruhlariga bo'lingan holda olib boriladi. Har guruhdan bitta o'quvchi chiqadi va ular bitta ma'lumot aytadilar, u to'g'ri bo'lsa, keyingi zinaga ko'tariladi. Bu metodda vaqt chegaralanmagan, qaysi zinada turgan o'quvchi ko'p ma'lumot aytib, eng baland zinaga ko'tarilsa, u g'olib hisoblanadi. Quyidagicha ma'lumotlarni aytishlari mumkin:

1. Xurshid Do'st Muhammad "Mehmon" hikoyasida mehmonni "nimjon, bezor, azizmehmon" deya ta'riflaydi.

2. Chinorbek obrazi "Joziba" hikoyasida ishtirok etadi.

Bu kabi metodlar yozuvchi asarlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu orqali o'quvchilar hikoyaning o'zlari bilmagan, anglamagan qirralari bilan tanishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'qitish metodikasi". "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T-2017
2. X. Do'st Muhammad. "Bezor qushning qarg'ishi". "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T-2006
3. O. Abdullayeva. Abay ijodini o'rganishda savol va topshiriqlar ustida ishlash. Academic research in educational sciences.
4. O. Abdullayeva. Hikoya o'qitish metodikasi. Scientific progress. 2021
5. Sh. Ro'ziyeva. Hikoya janrini o'rganish prinsiplari. Bitiruv malakaviy ishi. T-2018